

2024 yilning o‘tgan 7 oy davri mobaynida “O‘zbekiston” lokomotiv deposida yo‘l qo‘yilgan “Brak” ishlari bo‘yicha ma’lumot

Braklar

2024 y	2023 y
2	2

2024 yilning o‘tgan 7 oyi moboynida “O‘zbekiston” deposi ishchi-xodimlari tomonidan poyezdlar harakat xavfsizligini buzilishi (brak)ga 2 marotaba yo‘l qo‘yilgan.

1. 2024 yilning 29 yanvar kuni Ayratom-Alatun stansiyalari oralig‘i 3814-km.ning 9-piketida mashinist S.Quryuonov va mashinist yordamchisi A.Sattarovlar boshqaruvidagi O‘z-Y-0115 rusumli elektrovoz 4-sonli yo‘lovchi poyezdi soat 00-20 dan 01-28 gacha to‘xtab turgan. So‘ng, mashinist Xalilov boshqaruvidagi 2O‘zELR-0410 rusumli elektrovoz yordamga berilgan. **Sababi:** O‘z-Y-0115 rusumli elektrovozning bosh o‘chirgichi taqiq bergen. Poyezdni turib qolishi oqibatida, **1 444 100 so‘m** miqdorida moddiy zarar kelib chiqqan. (TЧ-1 uchun – Ishdagi alohida hodisa yo‘lovchi tashish poyezdida lokomotiv buzilishi oqibatida, yordamchi lokomotiv talab qilganligi uchun).

2. 2024 yilning 29 yanvar kuni Jizzax-Zarbdor stansiyalari oralig‘i 3593-km.ning 5-piketida mashinist B.Zarilov va A.Muminovlar boshqaruvidagi O‘z-Y-0107 rusumli elektrovoz 123-sonli yo‘lovchi poyezdi soat 04-43 dan 05-44 gacha to‘xtab turgan. So‘ng, 2O‘zELR-0421 rusumli elektrovoz yordamga berilgan. **Sababi:** O‘z-Y-0107 rusumli elektrovozning bosh o‘chirgichi taqiq bergen. Poyezdni turib qolishi oqibatida, **1 456 900 so‘m** miqdorida moddiy zarar kelib chiqqan. (TЧ-1 uchun – Ishdagi alohida hodisa yo‘lovchi tashish poyezdida lokomotiv buzilishi oqibatida, yordamchi lokomotiv talab qilganligi uchun).

*(Ushbu brak ishlaridan keltirilgan zarar jami **2 901 000 so‘mni** tashkil etadi).*

(2023 yilning o‘tgan 7 oy davri moboynida 2 marotaba brakka yo‘l qo‘yilgan).

1. 2023 yilning 09 yanvar kuni To‘qimachi stansiyasida soat 15 dan 50 daqiqa o‘tganda stansiya navbatchisi K.Tulaganov topshirig‘i bilan bosh konduktor N.Abuvaxobov va mashinist A.S.Sultonkulov, mashinist yordamchisi A.A.Tadiqulovlar boshqaruvidagi TЭM2-1959 rusumli teplovozi bilan “Aeroport” shaxobcha yo‘lidan 11 ta sesterna bo‘sish vagonlar bilan M8 manyovr svetofori orqasiga olib chiqishgan. Shundan so‘ng, stansiya navbatchisi K.Tulaganov topshiriq berib, 18-band yo‘lga olib kirishini aytgan. M8 manyovr svetofori ruxsat beruvchi signali ochilganda, bosh konduktor N.Abuvaxobov ratsiya orqali signal ochilganini mashinistga aytib, yurishga ruxsat bergan. Mashinist bosh konduktor topshirig‘i bo‘yicha vagonlar oldida jo‘nab ketayotganda, taxminan soat 15 dan 55 daqiqa o‘tganda, mashinist tormoz magistral havo bosimi tushib ketishi oqibatida, to‘xtab qolgan. Borib tekshirilganda, manyovr teplovozidan keyingi vagondan bitta aravachasi g‘ildirak juftliklari temir yo‘l izidan chiqqanligi aniqlangan. Sodir etilgan holat mas’ul xodimlar tomonidan tezkor o‘rganilganda, yo‘l xo‘jaligi, hamda vagon xo‘jaligi tomonidan kamchiliklar va nosozliklar aniqlanmagan.

G‘ildirak juftlik 22-sonli strelka o‘tkazgich (+) holatida bo‘lib, shu o‘tkazgicha ustida g‘ildirak juftligi yo‘nalish bo‘yicha o‘ng taraf o‘tkazgich ramasi hisoblangan rels ustiga greben sakrab chiqib, aravacha konstruksiyasida (Надпрессорная) balka vagon og‘irligini yo‘qotganidan prujinali ko‘targichlar kesilib, turgan joyidan (bir komplekti) otilib chiqib ketgan. Shunga o‘xhash holatlarda yuksiz vagonlar tizim siqilganidan (толчок ёки набегания) ma’lum bir vaqtida oldinda harakatlanayotgan vagon keyingi ulangan vagon avtoulagich tizimidagi prujinalari bilan siqishib, prujinalar keyingi dastlabki holatga qaytish davrida bo‘s sh vagonni ramasini ko‘tarib yuborib, yuksizlantirib, g‘ildirak juftliklarni rels ustiga chiqishi yuzaga kelgan. Mashinist bu holatni sezmasdan harakatni davom ettirib, siqilish hisobidan o‘ng tomonga (ikkinchi g‘ildiraklar rels oralig‘ida) izdan chiqishi sodir etilgan.

2. 2023 yilning 08 iyun kuni O‘z-Y-0115 rusumli elektrovoz mashinisti A.Mirzayev va A.Umaraliyevlar boshqaruvidagi №58-sonli Toshkent-Xiva yo‘nalishidagi yo‘lovchi poyezdi bilan Guliston stansiyasida soat 22-12 dan 23-00 gacha elektrovoz mashinist kabinasi monitorida akkumlator batareyalar quvvati 77 V ga tushganligini ko‘rsatgan. Buning sababi elektrovozning TGY04 zaryadlash shkafidagi TGY-M2 monitoring moduli nosozligi bo‘lganligi aniqlangan. So‘ngra, yordamga 2ВЛ60^K-401 rusumli elektrovozi berilgan. Elektrovozning oxirgi JT-3 hajmdagi ta’miri 2020 yil 25 mart kuni, JT-1 hajmdagi ta’miri 2023 yil 03 iyun kuni “O‘zbekiston” lokomotiv deposida o‘tkazilgan. Poyezdni turib qolishidan **1574 600 so‘m** miqdorida moddiy zarar kelib chiqqan. (ТЧ-1 uchun – harakat xavfsizligini buzilishi alohida nuqsonli holati, yo‘lovchi poyezdi yordamchi lokomotiv talab qilganligi uchun).

(Ushbu brak holatidan keltirilgan zarar **5 541646,36 so‘mni** tashkil etadi).

ТЧЗЭ-1

A.A. Baltabayev